



Linguistic Considerations of Phitrate: About Cases

Dilobar Berdiyeva

Chirchik State Pedagogical University
Teacher of the Department of Uzbek Linguistics
(+99897302-11-84)

Abstract: It is known that Fitrat is a scientist who made a significant contribution to the development of the Uzbek language as a linguist. His works "Sarf" and "Nahv" were important scientific works on the grammar of the Uzbek language in their time and served as a guide for learners. This article highlights Fitrat's views on linguistics and his views on agreement.

Key words: Fitrat, "Sarf", "Nahv", signs, question mark, -niki suffix, look mark, accusative mark, "pronoun traces".

Fitratning Tilshunoslik Qarashlari: Kelishiklar Haqida

Dilobar Berdiyeva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasini o‘qituvchisi
(+99897302-11-84)

Annotatsiya: Ma’lumki, Fitrat tilshunos sifatida o‘zbek tili rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan olimdir. Uning “Sarf” va “Nahv” asarlari o‘z davrida o‘zbek tili grammatikasi haqidagi muhim ilmiy asar bo‘lib, o‘rganuvchilar uchun qo‘llanma vazifasini bajargan. Ushbu maqolada Fitratning tilshunoslikka oid qarashlari va kelishiklar haqidagi fikrlari xususidagi fikrlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Fitrat, “Sarf”, “Nahv”, belgilar, so‘rov belgisi, -niki qo‘shimchasi, qarash belgisi, tushum belgisi, “olmosh izlari”.

Fitrat o‘z davrining qomusiy olimi, adabiyotshunos, tarixchi, dramaturg va kuchli tilshunos olimdir. Uning tilshunoslikka oid qarashlari hozirgi o‘zbek tilining rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi. Olimning til va imlo haqidagi maqolalari, “Sarf” va “Nahv” asarlari o‘zbek tili grammatikasi haqidagi muhim manbadir. Olim o‘z maqolalarida tilimizning kelajagi haqida jiddiy qayg‘urganini his qilish mumkin. Fitrat 1921-yilda o‘tkazilgan Til va imlo quriltoyida so‘zlangan nutqida “Chig‘atoy gurungi” tashkiloti haqida gapiradi. Bu tashkilot Fitrat tashabbusi bilan tashkil qilingan bo‘lib, o‘z quyidagi maqsadlarni qo‘ygan edi:

— tilimizning tugal, yuksak, san’atkor bir adabiyoti bor. Tilimizning adabiyliyi arabiylikda emas, o‘zidadir. Shuni tirgizmak kerak;



— adabiyotimizni yuksaltmak uchun burungi san’atkor shoirlarimizning o’lmas narsalaridan foydalanmoq ham taraqqiy qilg’an uluslar tomonidan orag’a solingan umumiy asoslarg’a erishmak kerakdir;

— tilimizning qoidalarini totorcha yoxud usmonlicha qoida kitoblaridan emas, tilimizning o’zidan olmoq kerak. Shuning uchun xalq og’zida yurgan so’zlarni, xalq adabiyoti bo’lg’an ertaklar, maqollar, laparlarni yig’ib tekshirmak lozim;

— adabiyot yozuchiligi bo’lg’ani uchun yozu(v) qoidalarini, imloni ham tuzatmak kerak.


Ko’rinadiki, Fitrat o’zbek tili taqdiri uchun jiddiy qayg’uradi va uni saqlab qolishga harakat qiladi.

Olimning “Sarf” va “Nahv” asarlari ham mana shu maqsadi yo’lidagi harakatlari natijasida yuzaga keladi. Bu ikki asar til grammatikasiga bag’ishlangan bo’lib, tilshunoslikning barcha bo’limlari haqida tahliliy fikrlari bayon qilingan. Jumladan, Fitrat kelishiklar haqida ham o’z qarashlarini bayon etgan.

Fitrat kelishiklarni quyidagi turlarga ajratadi:

- 1. So’rov belgisi.** Fitrat -mi qo’shimchasini so’rov belgisi (kelishigi) sifatida kelishiklar qatoriga qo’shadi. Lekin bu fikrni to’g’ri deb bo’lmaydi.-mi qo’shimchasi xarakterida sintaktik vazifadan ko’ra lug’aviy shakl yasovchilik xususiyati ustunlik qiladi. Ya’ni so’z yoki gapga so’roq ma’nosini yuklaydi.
- 2. Qarash belgisi.** Fitrat qarash belgisi (kelishigi) -ning qo’shimchasi bilan ifodalanadi deydi.-ning qo’shimchasi qarash belgisi hisoblanadi va “bir narsaning kimga,nimaga qarashlig’ini ko’rsatadir: uning bog’chasi,bog’chaning eshigi, Sharifaning kitobi, Elbekning she’ri”, deya ta’rif beradi. Bundan tashqari, bu belgi bir otga qo’shilgach,undan keyin kelgan otga uchinchi turli “olmosh izlari” qo’shiladi. Bu o’rinda “olmosh izlari” deganda Fitrat egalik qo’shimchalarini nazarda tutadi. Masalan, barchasi,qopchasi, mening qalamim, sening qog’ozing, ularning she’rlari, sizning ishingiz,bizning turishimiz kabi.
- 3. Qarash belgisi.** Fitrat -niki ,-niqi qo’shimchalarini ikkinchi tur qarsh belgisi (kelishigi) sifatida oladi. “ -niqi — niki bu ham qarash belgisidir. Bu kitob Ahmatniki, bu she’r Botuniqi”. -niki qo’shimchasi hozirgi o’zbek tilida qarashlilik qo’shimchasi sifatida otning lug’aviy shakl yasovchisi sifatida olinadi. Bizning fikrimizcha, Fitratning fikri asosli. Chunki -niki qo’shimchasi xarakterida sintaktik shakl yasovchilik xususiyati ustunlik qiladi. Yana bir jihat borki, -niki qo’shimchasi vazifa va ma’no xususiyatiga ko’ra -ning qo’shimchasiga yaqin turadi. Shu sabab, bu qo’shimchani kelishik qatoriga qo’shish maqsadga muvofiq bo’ladi.
- 4. Tushma belgisi.** -ni tushma belgisi (kelishigi)ni ifodalovchi qo’shimcha. Bu qo’shimcha hozirgi o’zbek tilida tushum kelishigi deb nomlanadi va otni fe’lga bog’lovchi sintaktik shakl yasovchi hisoblanadi. “Men kitobni yozdim deganda yozmoq ishi ta’sirining kitobga tushkani bilinadir”¹.
- 5. Borish belgisi.** -ga,-qa,-ga,-ka qo’shimchalari bilan ifodalanadi. Bu qo’shimcha o’zi qo’shilgan so’zni boshqa so’zga bog’laydi. Fitratning fikriga ko’ra bu qo’shimcha

¹ Fitrat A. Tanlangan asarlar. Toshkent:. Ma’naviyat,2009.



ma'lum shaxs, narsa, joyga qaratilgan harakatni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, maktabka bordim, shaharga qochdim, talabaga kitob berdim deganda bundagi fe'llardan maktab, shahar, talabaga qaratg'an bir harakat borligi onglashiladi.²

6. Chiqish belgisi. –dan qo'shimchasi bilan ifodalangan belgi (kelishik) bugungi o'zbek tilida chiqish kelishigi deb nomlanadi. Fe'ldan anglashilgan harakatning boshlanish nuqtasiga ishora qiladi. Maqsalan, uydan keldim. kitobdan ongladim,³ kabi. Bunda fe'llardan anglashilgan harakatning uy va kitobdan boshlangani anglashiladi.

7. O'run belgisi. Bu belgi (kelishik) -da qo'shimchasi bilan ifodalanadi. Bu qo'simcha o'zi qo'shilgan so'zni boshqa so'zga bog'laydi va hokim qismning o'rnini bildiradi. Masalan, uyda o'tirdim, maktabda yozdim. Ushbu misollarda hokim qism bo'lgan fe'lning o'rnini bildiriyapti.

Bundan tashqari Fitrat “-g'a -dan, -da, -ni” - bunlar bir fe'lning ishlovchidan boshqa kimga, nimaga nisbat bolg'anini ko'rsatadir”,⁴ deydi. ko'rinadiki, Fitrat yettita kelishikni sanaydi. Kelishiklar qatoriga bosh kelishikni qo'shmaydi. XVIII asrda yashab o'tgan Mirzo Mehdixon ham o'zining “Sangloh” asarida kelishiklarni besh turga ajratadi va bosh kelishikni kelishik sifatida ajratmaydi.

Fitratning kelishiklar haqidagi qarashlari hozirgi o'zbek tilidagi kelishiklar turlaridan farq qiladi. Biroq Fitratning tilshunoslikka oid qarashlari bugungi kunda tilimiz rivojida katta ahamiyat kasb etadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

References:

1. Fitrat A. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat, 2009.
2. Fitrat. Adabiyot qoidalari. T., 1993.
3. O'rinboyev. B. Tilshunoslik tarixi. Jizzax. 1994.
4. O'rinboyev. B., 2. O'rinboyeva. D. O'n uch qaldirg'ochdan biri. Samarqand. 1995.
5. Nurmonov. A. O'zbek tilshunosligi tarixi. T., 2002.

² Fitrat A. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat, 2009.

³ Fitrat A. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat, 2009.

⁴ Fitrat A. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma'naviyat, 2009.